

**BOLALARDA RIVOJLANISH KECHIKISHLARINI ANIQLASHDA
PSIHADIAGNOSTIKANING O'RNI**

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Boshlang'ich ta'lim 2-kurs talabasi

Adhamova Zuhraxon Atabek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda rivojlanish kechikishlarini aniqlash jarayonida psixodiagnostikaning o'rni va ahamiyati yoritib beriladi. Psixodiagnostika -bu shaxsning psihik rivojlanish darajasi, individual xususiyatlari, emotsional holati, aqliy holati, psihik holati hamda ijtimoiy sohalardagi imkoniyatlarini ilmiy asosda o'lchash va baholashga qaratilgan metodlar majmuasidir. Tadqiqotda bolalarda rivojlanish kechikishlarini erta aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlashda hamda psixodiagnostikaning testlar, kuzatish, suhbat, va eksperimental metodlarining ahamiyati haqida yoritilgan. Qolaversa, psixologik tashxis natijalarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonda individual yondashuvni shakllantirish va korreksion ishlarni olib boorish samaradorligini asoslab beriladi. Natijada psixodiagnostika bolalarda rivojlanish kechikishlarini erta aniqlab oldini olish va ularni bartaraf etishning choralari keng yoritib beriladi.

Annotation : This article highlights the role and significance of psychodiagnosics in identifying developmental delays in children. Psychodiagnosics is defined as a set of scientifically grounded methods aimed at measuring and assessing an individual's level of mental development, personal characteristics, emotional and intellectual state, and social capabilities. The study focuses on the importance of using psychodiagnostic methods such as tests, observation, interviews, and experimental approaches in the early detection of developmental delays and in identifying their causes. Furthermore, it substantiates the effectiveness of applying psychological diagnostic results in forming an individualized approach within the educational process and conducting corrective



work. As a result, psychodiagnostics is recognized as an effective means of early detection, prevention, and correction of developmental delays in children.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль и значение психодиагностики в процессе выявления задержек развития у детей. Психодиагностика представляет собой совокупность научно обоснованных методов, направленных на измерение и оценку уровня психического развития, индивидуальных особенностей личности, эмоционального и интеллектуального состояния, а также социальных возможностей ребёнка. В исследовании освещается важность применения психодиагностических методов — тестов, наблюдения, беседы и экспериментальных подходов — при раннем выявлении задержек развития и определении их причин. Кроме того, обоснована эффективность использования результатов психологической диагностики в формировании индивидуального подхода в образовательном процессе и проведении коррекционной работы. В итоге психодиагностика рассматривается как эффективное средство раннего выявления, профилактики и устранения задержек развития у детей.

Kalit so'zlar: psixodiagnostika, bola rivojlanishi, psixologik testlar, kuzatish, suhbat, eksperimental metodlar, psixologik tashxis, psixik jarayonlar, bolaning shaxsiy xususiyatlari.

Keywords: psychodiagnostics, child development, psychological tests, observation, interview, experimental methods, psychological diagnosis, mental processes, child's personal characteristics.

Ключевые слова: психодиагностика, развитие ребёнка, психологические тесты, наблюдение, беседа, экспериментальные методы, психологическая диагностика, психические процессы, личностные особенности ребёнка.

Bugungi kunda bolalar rivojlanishini erta bosqichlarda baholash, rivojlanishidagi kechikishlarni oldini olish va tahlil qilish masalalari bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu jarayon nafaqat psixodiagnostika fanini emas barcha shu yo'nalishda bo'lgan fanlar muammosi hisoblanadi. Ayniqsa



pedagogika, tibbiyot fanlarining dolzarb masalasi hisoblanadi. Psihodiagnostika fanida esa bolani kognitiv, komunikativ ham aqliy, ham jismoniy ham emotsional rivojlanishida ortda qolayotgan bolalar va rivojlanishi me'yorda ketayotgan bolalar bilan taqqoslanib bu jarayonlar tahlil qilinadi. Bu jarayonga qonun va qarorlar ishlab chiqilgan, 2020-yil rivojlanishda ortda qolayotgan bolalar huquqlarini teng huquqda ta'minlashi, bolalarning ta'lim olish huquqi va mahsus ta'limga ehtiyoji bor bolalar uchun belgilangan moddalar ham mavjud. Ularga dasturlar ishlab chiqilgan, kompensator, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar (tuzatuvchi) ta'lim, rivojlantiruvchi sinflar, psiholog, logoped defektolog bilan ish olib borish maxsus baholash tartibi belgilangan. Bu vaziyatda Xalq ta'limi vazirligining psihologik-pedagogik tashxisidan o'tkaziladi, natijaga ko'ra bola maxsus pedagogik yordam, soddalashtirilgan dastur, defektolog va logoped bilan darsolish huquqiga ega bo'ladi. 2020-yil Ta'lim to'g'risidagi qonun ishlab chiqilgan. Konstitutsiyada bola huquqlarini kafolatlash har bir bolani ta'limdan chetlatmaslik, kamsitmaslik va teng sharoit yaratishni kafolatlaydi. Bu qonunda rivojlanishda sust bo'lgan o'quv materiallarini o'zlashtirishda qiynaladigan bolalarga maxsus pedagogik yordam berilishi shart, o'qitish individual yondashuv asosida tashkil etilishi shart, yengillashtirilgan topshiriqlar berilishi, qo'shimcha tushintirish darslari o'tilishi, kerak. Bola nogiron deb tan olinmagan bo'lsa ham, rivojlanishi sekinligi sabab pedagogik tashxis qo'yilishi va maxsus sinfga o'tkazilishi yoki umumiy sinflarda qo'shimcha yordam olishlari mumkin. Bolalarda rivojlanish kechikgandan keyin albatta boshqa qobiliyatlari ham kechikadi. Shuningdek bolada diqqati va xotirasi sust, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri, muloqot darajasi nutqi sust rivojlangan, qobiliyat va istedodlari sust, ijtimoiy moslashuvda qiynaladigan, aqliy rivojlanishi normal holatdan birozgina past bo'lishi mumkin. Diqqatning buzulishi diqqatsizlik yoki diqqatning mutloq susayishi bilan namoyon bo'ladi. Diqqatsizlikning boshlanishi diqqatni tarqoq bo'lishi diqqati tez ko'chuvchanligi kabi holatlarda namoyon hisoblanadi. Kattalarda kuzatilsa diqqatning barqarorligiga e'tibor berishi kerak. Tafakkur predmet va hodisaning umumiy xususiyatlarini aks ettirish, jumladan, borliqni sezishga aytiladi. Tafakkur insonning shunday aqliy



faoliyatidirki, butun bir borliqni va voqealikni to'liq chuqur va umumlashtirilib aks ettirishga, insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'illanishiga imkon beradi. Bolalarning rivojlanishida nutqiga, nutq orqali muloqotiga e'tibor qaratiladi. Muloqot- insonlar o'rtasidagi birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Bu jarayon shaxslar o'rtasidagi munosabat deyiladi. Nutq esa insonlar til orqali bir-biri bilan muomala va aloqa qilishning alohida usulidir. Inson tafakkuri yordamida butun borliqni anglasa, nutqi orqali o'zining bilimlari, fikrlari, hislari va istaklarini boshqa insonlarga aytib beroladi. Rivojlanishida kechikish bo'layotgan bolalarda nutqida hamda temperament va karakterida ham o'zgarish bo'lishi mumkin. Bu jarayonlarni psixodiagnostika o'rganadi va tahlil qiladi. Masalan; duduqlanishi- bazi harflarni aytishidagi qiyinchiliklar, so'zlarni dona dona aytolmasligini o'rganadi, tahlil qiladi va diagnostika qilib unga chora ko'rsatadi. Bunday bolalar nogiron deyilmaydi, lekin pedagogik yordamga ehtiyoji bor bolalar deyiladi. Qobilyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi. Faoliyatlar uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobilyatlarga asoslanadi. Psixodiagnostika aql va idrok masalasi insonning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab taqdiqotlar obyekti bo'lib, unda qobilyatlarni rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga ishonchli metodikalar yaratilib, har bir insonning aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatkichlar yig'indisi hisoblanadi. Bolalarda rivojlanishning bosqichi va turlari mavjud.

Rivojlanish bosqichi va darajasi: Rivojlanish jarayoni turli holatlarda - og'ir jismoniy, yengil holatda, yoki o'ta og'ir holatda ham bo'lishi mumkin. 1-holatda yani yengil holatda bolaning nutqida, ijtimoiy-emotsional, kognitiv faoliyatida kechadi. 2-holatida esa bola o'zini anglamay qolishi yoki atrofdagi yaqinlarini anglamay qolishi, nutqida yaqqol sezilarli darajada pasayish yuzaga kelishi kabi holatlar kuzatilsa psixodiagnostika fani bu jarayonni o'rganadi, tahlil qiladi va yechimini topishga yordam beradi. Chunki bu fan bolalarni psixodiagnostika qiladigan ularni o'rganadigan va tahlil qilib yechim topadigan fan hisoblanadi.



Rivojlanish bolalarning yosh davriga qarab ham tahlil qilinadi. Rivojlanish kechikishlari kichik yoshda aniqlansa bolaga ta'lim imkoniyatlari kengroq bo'ladi, va bu keyingi taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kechikishni erta aniqlash - keyinchalik rivojlanish moslashuvi, ijtimoiy faoliyat, o'quv yutuqlariga ijobiy ta'sir qilishi mumkini. Bolani holatini aniqlash uchun psixologik testlar o'tkaziladi, bolaning aqliy til va harakat qobiliyatini intellektual rivojlanish darajasini, bola kundalik hayotda o'zini qanday tutishini o'rganadi. Bola bilan o'yinli topshiriqlar, suhbat, rasm chizish yoki predmetlarni ajratish kabi faoliyatlar o'tkaziladi. Bolalarni rivojlanishda kechikishiga psihodiagnostika fanining vazifasi va afzalliklari : rivojlanish kechikishini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi - kechikish darajasi chuqurlashmasdan oldini olish mumkin. Bola bilan suhbat orqali bolaga savollar berishi va bergan savollariga qanday javob olishi orqali ham diagnostika qilish mumkin. Bolalarda rivojlanishda kechikish sabablarini o'rganish va diagnostika qilishda oila a'zolari pedagog va mutahassislar bilan hamkorlik qilsa vaziyatni onsonlashtiradi . Masalan: kuzatuv natijalari, testlar va hisobotlar asosida yagona tushuncha hosil bo'ladi. Bola oila muhitida boshqacha mutahasis oldida boshqacha holatda bo'lishi mumkun, sog'lig'idagi bazi bir muammolarni aytmasligi mumkin shu vaziyatda pedagog oila a'zolariga murojat qiladi va bolaning rivojlanish tarihi so'raladi bola yurishni, gapirishni qachon boshlagani va bola qanday muhitda yashayotgani o'rganilib diagnostika qiladi. Cheklovlar va e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlar; skrining testlari hamma holatda ham aniqlik bilan ishlamasligi mumkin-ba'zi bolalarda kechikish bo'lmasligi mumkin. Diagnostik vositalarning bolaga mosligi muhim -bolaning yoshi aqliy faoliyati, o'z tekdoshlari bilan muloqoti ahamiyatga olinishi kerak. Bola rivojlanishini psihodiagnostika qilganda faqatgina testdan foydalanmasdan boshqa usullarni ham qo'llash kerak. Jumladan intervyu, kuzatuv va ko'p manbali foyda beradigan yo'llarni qo'llash kerak. Bola faoliyati uchun eng samarali yo'l kuzatuv va suhbat bo'lishi mumkin. Bu jarayonda ish olib borgan olimlar; G'ulomov.A.A maktabgacha yoshdagi bolalar psihadiagnostikasi bo'yicha taqdiqotlar olib borgan bola o'yin va faoliyat orqali rivojlanadi degan. Jean Piaget -bola fikrlash jarayonini bosqichma bosqich



rivojlanishini o'rgangan, psihodiagnostika nazariyasiga kognitiv rivojlanish bosqichini kiritgan olim hisoblanadi. Bolalarda rivojlanish kechikishlarini aniqlash va u bilan samarali ishlashda psixodiagnostikaning o'rni katta. Jarayonni boshidan tortib, to'liq diagnostik baholashgacha bo'lgan jarayonlarda psixodiagnostika vositalari va metodlari muhim ro'l o'ynaydi - bolaning rivojlanishini aniqlash, qayerda yordam kerakligini belgilash, keyinchalik monitoring va intervensiya jarayonini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Shu bilan birga, diagnostika jarayoni murakkab bo'lishi mumkin — vositalarning to'liq mosligi, madaniy jihatlar, ko'p holatlarda baholashning zarurligi, tibbiy integratsiya va keyingi kuzatuvlar – bular ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Xulosa qilib aytganda rivojlanishda ortda qolayotgan bolalarga alohida e'tibor, sabr va pedagogik qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan toifa hisoblanadi. Bunday bolalar nogiron deb atalmasa ham, o'qish jarayonidagi qiyinchiliklari sababli maxsus yordamga muhtoj bo'ladi. Rivojlanishi sekin bo'lgan bolalar ham, o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi va jamiyatga moslashish huquqiga ega. Ularni qo'llab-quvvatlash nafaqat ta'lim tizimining vazifasi, balki jamiyatning ijtimoiy burchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni
3. K.K. Platkov, G. Golubev. "Umumiy psixologiya" 1982-yil
4. A.I. Shcherbakov. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan 1992-yil
5. F. I. Haydarov, S.M. To'ychieva "Psixologik maslahat"